

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA № VJ42351144**

1. Loyiha turi: **Shartnoma**
2. Loyiha nomi: Bog‘ot tuman tibbiyot birlashmasi va “Toxirbek Fazilat” MCHJ o‘rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi
3. Loyiyaning ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:  
**Bog‘ot tuman tibbiyot birlashmasi** tomonidan 2022-yil 27-yanvarda ishlab chiqilgan va 2022-yil 27-yanvar kuni dasturga kiritilgan.  
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik xizmat  
ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



**D.Matiyazov**  
27.01.2022 yil

**BOG'OT TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI BO'YICHA:  
SHARTNOMA**

2022.01.27

27/01-2-son

Bog'ot shaharchasi

“Toxirbek Fazilat” masuliyati cheklangan jamiyati bundan buyon matnda «Taminlovchi» deb ataluvchi nomidan rahbari S. Kurbanov bir tomondan bundan buyon matnda «Istemolchi» deb ataluvchi **Bog'ot TTB** nomidan rahbari **A.Saidov** boshqa tomondan, birgalikda quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

**1.Shartnomaning mazmuni**

1.1. «Taminlovchi» o'zida ishlab chiqarilgan kislorod mahsulotini «Istemolchi» ga uzluksiz taminlash majburiyatini oladi. «Istemolchi» esa uning haqini to'lash va qabul qilish majburiyatlarini oladi.

1.2. «Istemolchi» ning kislorod ballonlariga kislorod to'ldirib berish, «Taminlovchi» ning kislorod taminot shahobchasida amalga oshiriladi.

**1.3. Mahsulotlar qiymati.**

№	Nomlanishi	O'l.bir.	Miqdori	Narxi, so'm	Umumiy qiymati	QQS		Jami summa
						foizi	qiymati	
1	Kislorod	m3	5 000	9 200	40 000 000	15	6 000 000	46 000 000

**2.Shartnoma narxi, bahosi, summasi (qiymati)**

2.1.Shartnomaning umumiy qiymati 46 000 000 (qirq olti million) so'mni tashkil qiladi.

**3.To'lov shartlari**

3.1. “Istemolchi” “Taminlovchi” tomonidan har oy davomida to'ldiriladigan kislorod ballonlar uchun to'lovni oldindan 30% qismini shartnomaga asosan o'tkazib beradi, qolgan 70% qismini, to'ldirilgan kislorod ballonlar to'g'risidagi hisob-varaq faktura taqdim qilingandan keyin, 5 kun muddat ichida «Taminlovchi» ning hisob-raqamiga shartnomaga asosan hisob varaqda ko'rsatilgan mahsulot miqdori summasini to'liq o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

3.2.To'lov turi to'lov topshiriknomasi (pul o'tkazish yo'li) bilan amalga oshiriladi.

(tulov talabnomasi,tulov topshiriknomasi,чек akkreditiv va boshkalar)

**4.Shartnomaning bajarilish muddati**

4.1.Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan mahsulot «Istemolchi» ga, shartnoma ro'yxatga olinib, ishonchnoma “Taminlovchi” ga taqdim qilingandan keyin oylik talabnomaga asosan berilib boradi.

4.2.Shartnomaning amal qilish muddati: 2022 yil «30»dekabrgacha o'z kuchida qoladi.

**5.Taraflar majburiyatlari**

5.1. «Taminlovchi» majburiyatlari:

5.1.1.Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Istemolchi»ga maxsulotni etkazib berish;

5.2. «Istemolchi» majburiyati:

5.2.1.Mahsulotni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda, Ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan tartibga, soniga, sifatiga qarab muddatida mahsulotni qabul qilib olish;

5.2.2. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mahsulot kelib tushgani aniqlangandan keyin, bu haqda dalolatnoma yozilib 24 soat ichida “Taminlovchi” ni ogohlantirish.

**6. Taraflar javobgarligi**

6.1. Mahsulot berish vaktida shatrnoma bandlariga to'liq rioya qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermagan xar kuni uchun kechiktirilgan mahsulot qiymatining 0,5% miqdorida penya to'laydi, lekin yetkazib berilmagan mahsulot summasining 50 % dan oshib ketmasligi kerak.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi xamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa, sotuvchi taraf but bo'lmagan mahsulot qiymatining 20 % miqdorida penya to'laydi.

6.4. Yetkazib beruvchi yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) va boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchiga sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.5. Mahsulot uchun "Buyurtmachi" o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan mablag'ning 0,4% penya to'laydi, lekin 50% miqdordan oshib ketmasligi kerak.

6.6. Neustoyka (jarima) to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

#### 7. Fors-major xolatlari

7.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda Ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.

7.2. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirilib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

#### 8. Nizoni xal qilish tartibi

8.1. Ushbu shartnomada yoki unga bogliq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

8.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud orqali hal qilinadi.

#### 9. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

9.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

#### 10. Boshqa xolatlari

10.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, ikki nusxada tuzilgan.

10.2. Taraflarning boshqa talablari: \_\_\_\_\_

10.3. Shartnomaga ilova: \_\_\_\_\_

#### 12. Taraflarning yuridik manzilgoxi va to'lov rekvizitlari

##### «TAMINLOVCHI»

##### «ISTEMOLCHI»

<p>«Toxirbek Fazilat» MChJ</p> <p>MANZIL: Urganch shahri Ashxobod MFY, Sanoatchilar ko'chasi 86-uy. h/r 20208000804931056001 "Mikrokreditbank" Urganch shahar, MFO 00549, STIR 302077495, OKED 56100 Tel: 93-284-20-70</p> <p>Rahbar:  S. Kurbanov</p> 	<p>Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi Manzil: <u>Xorazm viloyati Bog'ot shaxarchasi</u> <u>Toshkent ko'cha №2</u> Tel 62-31-52-531 SHG'R: 100022860332047073101054001 Bank nomi Toshkent shahar Markaziy bank XKKM Bank kodi 00014 STIR 200426871 201122919 Moliya vazirligi G'aznachiligi G'azna x/v 23402000300100001010</p> <p>Raxbar:  A. Saidov</p>
---	---